

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ERTAKLARNI INNOVATSION TAHLIL QILISH MASALASI

Abdiqodirova Iroda Norqul qizi

BuxDPI II bosqich magistri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada folklor adabiyotining paremik janrlaridan biri ertakning innovatsion tahlil qilish va dars jarayoniga joriy qilish metodlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Adabiy ertak, personaj, milliy qahramon, tarbiya, o‘quv jarayoni, Abdulla Avloniy, milliylik, tarbiya, urf-odat, axloq, motiv, ajdodlar an’anasi va hokazo.

Xalq og‘zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkirligi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarni o‘qitish turli axloqiy sifatlarni shakllantirishning muhim vositasi sifatida ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan va bu borada anchagina ilmiy-ma’lumotlar to‘plangan, tarbiyaviy tizimlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan, amaliyatga tatbiq etilgan. Ammo adabiy ertaklarni o‘qitishning o‘quvchi o‘quv-biluv faoliyatini takomillashtirishdagi ta’siri yetarli darajada o‘rganilmagan. Zero, ma’rifatparvar o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi haqida gapirib shunday degan edi: “Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrlmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”. Ta’limning maqsadi o‘quvchilarga jahon andozalariga mos bilim va malakalarni o‘rgatishdan iborat bo‘lsa, tarbiyaning maqsadi bolalarni hayot bilan tanishtirish unga muhabbat uyg‘otishdan iboratdir. Bolalarni qadimiyl urf-odatlar, tarixiy-milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularning dunyoqarashlarini shakllantirish, insonlarga xos eng yaxshi xislatlarni singdirish kabi g‘oyalar, asosan, ular o‘qiydigan asarlarda jamuljam bo‘lishi lozim. Boshlang‘ich sinf Ona tili va o‘qish

savodxonligi darsliklaridan o‘rin olgan bir qancha xalq va adabiy ertaklar shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat,⁸ shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Adabiy ertak janr sifatida, albatta, adabiyotning to‘laqonli yo‘nalishi hisoblanadi. Ko‘rinishidan, bu asarlarga bo‘lgan talab hech qachon kamaymaydi, ular bolalar va kattalar tomonidan doimo talab qilinadi. Hozirda ushbu janr har qachongidan ham universaldir. Adabiy ertaklar va ularning mualliflari mashhurdir, lekin ba’zi bir muvaffaqiyatsizliklar ro‘y beradi. Folklor bilan aloqa hozirgacha saqlanib qolgan, ammo zamonaviy voqelik va tafsilotlar ham ishlatilgan. Adabiy ertaklar ko‘plab rus, nemis fransuz va boshqa xorijiy yozuvchilar tomonidan yozilgan. Yozuvchining dunyoga bo‘lgan qarashlari, g‘oyalari va istaklarini aks ettiradi, xalq ertaklari esa umumlashtirilgan qadriyatlarni namoyish etadi. Muallif asosiy qahramonlarga va individual personajlarga hamdardlik bildiradi va salbiy personajlarni ochiqchasiga masxara qiladi. Adabiy ertaklar asosan xalq ertaklarining syujetlari negizida yaratiladi. Xalq ertaklariga taqlid qilish uchun xuddi shu prinsiplar qo‘llaniladi: ertak atmosferasi, hayvonlar bilan suhbat, uch marta takrorlash va vernakular. Muallif ko‘proq tafsilotlarni qidiradi, qahramonlarning fe’l-atvorlari hamda shaxsiy fazilatlari batafsил bayon qiladi. . Xalq og‘zaki ijodi namunalarida aks etgan yuksak g‘oyalalar ustida fikr yuritar ekanmiz, bunda yosh davridanoq bir-biridan ajralib turadigan o‘quvchilarni ko‘z oldimizda gavdalantirishimiz lozim. Ma’lumki, bola markaziy nerv tizimining tuzilishi, uning ishi (vazifalari) va xususiyatlari, uning markaziy va pereferik qismi, bosh miyaning tuzilishi, har bir neyronning tuzilishi va uning ish tartibi, "retseptor" tushunchasi va uning turlari, "analizator" tushunchasi, odam bosh miya qobig‘ining tuzilishi va uning asosiy maydonlari satqi qismlari ustida, bosh miya qobig‘ida sodir bo‘ladigan asosiy psixik jarayonlar va kishining psixik holatlari, retikulyar formatsiyalarining markaziy nerv tizimida tutgan o‘rni, uning roli va vazifalari to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘lish

⁸ Doniyorov M.A.”Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish ustivor yo‘nalish sifatida”. Xalqaro anjuman materiallari. Nukus-2022. B-386-392.

pedagogik tashhislashni oqilona tashkil qilishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan bir qatorda, bola miyasida sodir bo‘ladigan psixik holatlarning anatom-fiziologik xususiyatlari bunda sezgilarning tarkib topishida ishtirok etadigan miya tuzilishi va tanamizdagи a’zolarning fiziologik mexanizmlari ustida o‘ylanib ko‘rishi zarur. Axloqiy tarbiya fazilatlari: sabr-qanoat, matonatni xulq-atvorning genetik ildizi bunda inson psixologiyasi va uning xulq-atvori, xatti-harakatlari rivojlanishida genetika va muhit, biologik va ijtimoiy omillarni tushuntirish muammolari, irsiyat mexanizmlari haqidagi tasavvurlar asosida hal qilishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya tadbirlarini amalga oshirishda xalq pedagogikasidan foydalanish ahamiyatlidir. Xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi bo‘lgan o‘zbek xalq pedagogikasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy xayotning barcha tomonlarini, xalq og‘zaki ijodi, qadrshunoslik, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo‘nalishlarini, diniy-axloqiy ta’limotni qamrab olganligi bilan muhim hisoblanadi. U xalqimizning asrlar davomida to‘plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma’rifiy, estetik, ma’naviy jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, xulosalarini lo‘nda va donishmandona ifodalaydi.

Tarbiyada milliy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi tarbiya jarayonida o‘zbek xalqining milliy-ma’naviy merosiga, an’analariga, milliy qadriyatlarga tayangan holda ish ko‘rishni nazarda tutadi. Tarbiyada izchillik, tizimlilik-tarbiyaviy ta’sirlarning uyg‘unligi va uzlucksizligi qoidasi o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda izchillikka rioya qilishni, o‘quvchiga birdaniga juda ko‘p talab qo‘ymaslikni, tarbiyada maktab oila, jamoatchilik talabining bir xil bo‘lishini talab qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirishda pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang‘ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o‘qituvchi, tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmadovich X. X. et al. *ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKARNI O ‘RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali.* – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 281-285.
2. Ҳайитов X. A. *FAФУР ФУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАХОРАТИ //Academic research in educational sciences.* – 2021. – T. 2. – №. 3. – C. 679-687.
3. Akhmadovich H. H. *Khoja nasriddin afandi as people’s hero //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL.* – 2021. – T. 11. – №. 2. – C. 1562-1565.
4. Akhmadovich K. K. *Symbolism of Birds in Uzbek Literature //International Journal on Integrated Education.* – T. 3. – №. 4. – C. 59-63. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O ‘QUVCHILAR O ‘ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 306-309.
5. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. *BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O ‘YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali.* – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 100-102.
6. Ahmadovich H. H., Amrulloyevna S. D. *RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali.* – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 248-250.
7. Ahmadovich K. H., Bahriddinovna S. G. *Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research.* – 2022. – T. 11. – №. 6. – C. 141-145.
8. Ahmadovich K. H., Zokirovna ZA. G. *THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje.* – 2022. – T. 25. – C. 133-137.